

«Katta.uz» (iOS va Android platformalari uchun mobil ilovalar) ilovasining maxfiylik siyosati

Ushbu Siyosat «SAB-GAMES» MChJ (keyingi o‘rinlarda «Kompaniya») tomonidan jismoniy shaxslarning - «Katta.uz» Ilovasi (iOS va Android platformalari uchun mobil ilovalarni o‘z ichiga kirituvchi, bundan buyon - «Ilova») foydalanuvchilarining ma’lumotlarini to‘plash va qayta ishlash xususiyatlarini belgilaydi.

Ushbu hujjat («Siyosat») Ilovadan foydalanish bo‘yicha Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu Siyosat faqat Foydalanuvchilar tomonidan Ilovadan foydalanish natijasida «Katta.uz» tomonidan olingan ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ilovani yuklab olish va o'rnatishda Foydalanuvchi ushbu Siyosat shartlarini to'liq qabul qiladi va shaxsiy ma'lumotlarni ushbu Siyosatda ko'rsatilgan tartibda va maqsadlarda qayta ishlashga ixtiyoriy aniq roziligini bildiradi. Agar foydalanuvchi ushbu Siyosatga rozi bo'lmasa, «SAB-GAMES» Ilovani yuklab olishdan voz kechishini so'raydi.

«SAB-GAMES», ushbu ko'rsatilgan o'zgartirishlar haqida «Katta.uz» ilovasida, Ilova interfeysidagi axborot xabarlarida e'lon qilish orqali Foydalanuvchini xabardor qilgan holda ushbu Siyosatga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Foydalanuvchilar tomonidan olinadigan va foydalaniladigan ma'lumotlar, shuningdek ulardan foydalanish maqsadlari.

Ushbu Maxfiylik siyosati doirasida **Foydalanuvchining ma'lumotlari** deganda Foydalanuvchining «Katta.uz» ga hisob qaydnomasini yaratish, ro'yxatdan o'tish, telefon raqami, FISH, jinsi va shu kabi ma'lumotlarni qo'shishda, shuningdek, Ilovadan foydalanish jarayonida (o'yin sessiyalari miqdori va liderborddagi ballari to'g'risidagi ma'lumotlar) beriladigan ma'lumotlar; shuningdek, Ilovadan foydalanish jarayonida avtomatik ravishda uzatiladigan ma'lumotlar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: IP-manzili,

kirish amalga oshiriladigan mobil qurilma haqida ma'lumotlar va boshqalar kabi mustaqil ravishda taqdim etiladigan shaxsiy ma'lumotlari tushuniladi.

Ilovadan foydalanishda quyidagi ma'lumotlar so'ralishi va olinishi mumkin:

1.2. Foydalanuvchi haqida ma'lumot.

Hisob qaydnomasini yaratish va/yoki ro'yxatdan o'tishda «Katta.uz» dan foydalanuvchi haqida ma'lumotlar, masalan, FISH, jinsi, tug'ilgan sanasi, telefon raqami so'raladi. «Katta.uz» dan qo'shimcha ma'lumotlar ham so'ralishi mumkin.

«Katta.uz» ilovasining qo'shimcha funksionalidan foydalanishning ayrim hollarida foydalanuvchining aloqa ma'lumotlari (telefon va/yoki manzillar kitobi, mobil qurilmadagi kontaktlar) olinishi mumkin.

1.3. Mobil qurilma haqida ma'lumot.

«Katta.uz» ilovasi Foydalanuvchilarning mobil qurilma modeli, operatsion tizim versiyasi, noyob qurilma identifikatorlari kabi mobil qurilmalari haqida ma'lumotlarni, shuningdek, mobil tarmoq va mobil telefon raqami haqida ma'lumotlarni to'playdi. Bundan tashqari, qurilma identifikatori va mobil telefon raqami Foydalanuvchining hisob qaydnomasiga bog'langan bo'lishi mumkin.

1.4. Joylashuv haqida ma'lumot.

Foydalanuvchining mobil qurilmasining geografik joylashuvi funksiyasini qo'llab-quvvatlovchi Ilova xizmatlari «Katta.uz» ga Foydalanuvchining haqiqiy joylashuvi haqida ma'lumotlarni, shu jumladan mobil qurilma tomonidan yuborilgan GPS ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

1.5. «Katta.uz» ilovasining o'yinlaridagi faollik haqida ma'lumot.

«Katta.uz» ilovasidan o'yinlarni o'tish jarayonida o'yinda to'plangan ballar soni, o'yin sessiyalarining davomiyligi, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan amallar bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar to'planadi. Apple Inc. va Googlening tanlovlarga hech qanday aloqasi yo'q!

«Katta.uz» Foydalanuvchidan olingan ma'lumotlardan, «Katta.uz» tomonidan Foydalanuvchiga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, «Katta.uz» hamkorlarining Ilova doirasidagi reklamasini target qilish, statistik va tadqiqot maqsadlarida, shuningdek Ilovani va «Katta.uz» bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Foydalanuvchilar ma'lumotlaridan foydalanishda «Katta.uz» ushbu Maxfiylik siyosatiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va xalqaro huquq normalariga amal qiladi.

2. Siyosatda foydalaniladigan asosiy tushunchalar:

2.1. Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlov - hisoblovchi texnika vositalari yordamida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash.

2.2. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash - shaxsiy ma'lumotlar bilan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan yoki shunday vositalardan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar majmui (operatsiyalar), shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayd etish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarish, ishlatish, uzatish (tarqatish, berish, kirish), depersonalizatsiya, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilish.

2.3. Mobil ilova - ma'lum bir platforma (Android, iOS va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan, smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

2.4. Foydalanuvchi - «Katta.uz» ilovasining har qanday tashrifchisi.

2.5. Shaxsiy ma'lumotlar - to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ma'lum yoki belgilanadigan Foydalanuvchiga tegishli har qanday ma'lumot.

2.6. Foydalanuvchi ma'lumoti - Foydalanuvchining «Katta.uz» ga hisob qaydnomasini yaratish, ro'yxatdan o'tish, telefon raqamini qo'shish, FISH, jinsini ko'rsatish, va shu kabi jarayonlarda, shuningdek, Ilovadan foydalanish vaqtida (o'yin sessiyalari miqdori va liderborddagi ballar haqida ma'lumotlar) mustaqil ravishda taqdim etadigan shaxsiy ma'lumotlari; shuningdek, Ilovadan

foydalanish jarayonida avtomatik ravishda uzatiladigan ma'lumotlari, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: IP-manzili, kirish amalga oshiriladigan mobil qurilma haqida ma'lumotlar va boshqa mustaqil ravishda taqdim etiladigan shaxsiy ma'lumotlari.

2.7. Shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish - ma'lum bir shaxsga yoki ma'lum bir shaxslar doirasiga shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilishga qaratilgan harakatlar.

3. Foydalanuvchi ma'lumotini uchinchi shaxslarga taqdim etish

«Katta.uz» Foydalanuvchilardan olingan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga o'tkazmaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan yoki Ilova orqali Foydalanuvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning texnik xususiyatlaridan kelib chiqadigan hollar bundan mustasno. Shu bilan birga, xizmatlarning texnik xususiyatlari tufayli Foydalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni qonuniy ravishda oladigan shaxslar ushbu Siyosatga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro huquq normalariga rioya etish majburiyatini oladilar.

4. Erkin foydalanish uchun mo'ljallangan Maxfiylik siyosatining dolzarb versiyasi «Katta.uz» mobil ilovasida joylashgan.